



UDK: 808.5

Gulmira MURODOVA,
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: g.murodova@gmail.com

NamDU dotsenti D.Sarmsakova taqrizi asosida

“AVESTO” NING OSIYO (FORS, O‘ZBEK) TILLARIDAGI TARJIMALARI ILMIY TAHLILI

Annotatsiya

Mazkur maqolada "Avesto"ning fors va o'zbek tillariga tarjimalari ilmiy tahlil qilinadi. Asosan, fors tarjimalaridan Ibrohim Purdovud va Jalil Do'stqoh asarlari tahlil qilinib, ularning tarjima uslubi va mazmuni xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, o'zbek tiliga qilingan tarjimalar orasida Asqar Mahkam va Mirsodiq Is'hoqovning tarjimalari solishtiriladi. Ushbu maqola "Avesta"ning turli tillardagi tarjimalarining tarixiy va ilmiy ishonchlik darajasini baholashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Avesta, tarjima, fors tili, o'zbek tili, Ibrohim Purdovud, Jalil Do'stqoh, Asqar Mahkam, Mirsodiq Is'hoqov, Zardushtiylik.

SCIENTIFIC ANALYSIS OF "AVESTA" TRANSLATIONS INTO ASIAN (PERSIAN AND UZBEK) LANGUAGES

Annotation

This article provides a scholarly analysis of the translations of the Avesta into Persian and Uzbek. It focuses on the works of Ebrahim Pourdavoud and Jalil Doostkhah, examining their translation methods and content-specific features. Additionally, it compares the Uzbek translations by Asqar Mahkam and Mirsodiq Is'hoqov. The article aims to assess the historical and scholarly reliability of Avesta translations into different languages.

Key words: Avesta, translation, Persian language, Uzbek language, Ebrahim Pourdavoud, Jalil Doostkhah, Asqar Mahkam, Mirsodiq Is'hoqov, Zoroastrianism.

НАУЧНЫЙ АНАЛИЗ ПЕРЕВОДОВ «АВЕСТЫ» НА АЗИАТСКИЕ (ПЕРСИДСКИЙ, УЗБЕКСКИЙ) ЯЗЫКИ

Аннотация

В данной статье проводится научный анализ переводов «Авесты» на персидский и узбекский языки. Основное внимание уделяется работам Ибрахима Пурдавуа и Джалила Дустхаха, анализируется их переводческая методология и содержательные особенности. Кроме того, рассматриваются узбекские переводы Аскара Махкама и Мирсодика Исхакова. Цель статьи – оценка исторической и научной достоверности переводов «Авесты» на различные языки.

Ключевые слова: Авеста, перевод, персидский язык, узбекский язык, Ибрахим Пурдавуд, Джалил Дустхак, Аскар Махкам, Мирсодик Исхаков, зороастризм.

Kirish. Ikki daryo oraliq'i xalqlarining jahon sivilizatsiyasiga, insoniyatning ma'naviy kamolotiga asrlar davomida qo'shib kelgan hissasi bugungi kunda hech kimda shubha uyg'otmaydi. Bugun uzoq ajdodlarimiz tafakkuri va ma'naviyatining buyuk merosi bo'lmish "Avesto" kitobi ham Ikki daryo oraliq'i xalqlari tarixining eng ko'hna sahifalarini yoritishda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

"Avesto" Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi davrlardagi moddiy va ma'naviy hayoti, diniy qarashlari, olam va odam to'g'risidagi tasavvur, urf-odat va qadriyatlariga haqida ma'lumot beradi. Asarda Miloddan avvalgi XIII asrdan to milodning IV asrigacha bo'lgan davrdagi tarixiy voqealar aks etgan.

Adabiyotlar tahlili. Zardushtiylik orasida Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lmish "Avesta"ning ikki asosiy tahriri mavjud. Birinchi tahrir- bu qadimgi avesta tilidagi matn bo'lib, IV asrda yaratilgan 51 harfli avesta alifbosi bilan yozilgan matndir. Bu tahrir Vendidad-Sade deb ataladi. Uning tarkibi qat'iy diniy qonun asosida belgilangan va uch asosiy qismdan iborat. Vendidad, Visparad, Yasna kabi tarkibiy qismlardan iborat. "Vendidad-Sade" ibodat marosimlarida qo'llaniladi, shuning uchun undagi matnlar kitob tartibida emas, balkim marosim ehtiyojlarga mos holda joylashtirilgan.

Ikkinchi tahrir- "Avesta"ning kitoblarga, boblarga va baytlarga ajratilgan shakli bo'lib, u III-IV asrlarda pahlaviy yozuvda o'rta fors (pahlaviy) tiliga tarjima va sharh bilan yozilgan. Bu tahrir "Avesta va Zand" deb ataladi. Pahlaviy

tilida u "āpastāk va zand" – ya'ni avestiy matn va ushbu matnga sharh deb nomlangan. Yevropada Avestani o'rgangan birinchi olim Anketil-Dyuperon ushbu tartibni o'zgartirib "Zand-Avesta" deb atagan. Mashhur avestashunos A.V. Uilyams-Jekson ta'kidlaganidek: "Avestani o'rganayotgan mutaxassislar bugungi kunda shunday xulosaga kelganlarki, bu matnning yo'qolganligi haqida gapirish uchun jiddiy asos yo'q.

Oxirgi Parfiya podshohlari (Sosoniylar) haqiqiy zardushtiy ruhiga ega edilar va Iskandar davridan tortib Sosoniylar hokimiyat tepasiga kelguncha zardushtiy donishmandligi an'anasi uzluksiz saqlanib qolganini yunon, lotin va boshqa yozma manbalar tasdiqlaydi." [1] "Avesta" nafaqat diniy balkim tarixiy manba bo'lganligi bois ko'plab tillarga tarjima qilingan. Shu bilan bir qatorda fors hamda o'zbek tillariga ham tarjima qilingan.

Hozirgi kunda fors tilida mavjud bo'lgan ikki versiya – Ibrohim Purdovud va Jalil Dustxoh tarjimalari hisoblanadi. Birinchi tarjimaga to'xtaladigan bo'lsak, Ibrohim Purdovud (1885-1968) Eronning diniy hamda madaniy tarixi asoschilaridan biri bo'lib, uning ishlari asosan Eronning islomgacha bo'lgan davrining madaniy va diniy holati haqida bo'lib, asosan "Avesta"ni pahlaviy tilidan fors tiliga tarjima qilgan. Ushbu tarjimalarini keng qamrovli sharhlar bilan boyitgan.

Boshqa tillarda yozilgan zardushtiy manbalarni ham tahlil qilib, "Avesta" ning mazmuni va tarixiy ahamiyatini ochib bergan. Purdovudgacha Avestaga oid tadqiqotlar asosan

Yevropa tillarida, ayniqsa, fransuz va nemis tillarida olib borilgan edi. Uning fors tiliga qilgan tarjimasini Avestaning ilk to'liq va tizimli tarjimasini bo'lib, uni Eron olimlari va keng jamoatchilikka yetkazdi. Ushbu tarjima G'arb filologik tadqiqotlariga, xususan, Jeyms Darmesteter [2], Karl Hoffmann [3] va Kristian Bartolome [4] kabi yevropalik eronshunoslarning ishlariga tayangan.

Biroq, avvalgi tadqiqotchilardan farqli o'laroq, Purdovud matnlarning asl ma'nolarini tiklashga va ularni fors tilida tabiiy va tushunarli shaklda ifodalashga intilgan. Quyida Ibrohim Purdovudning tarjimalari keltirilgan.

1. "Zand-Avesta" (اوستا زنده) – "Avesta" matnining ko'p jildli forscha tarjimasini va sharhi. Ushbu asar 1927-1934 yillarda chop etilgan bo'lib, keyinchalik qayta nashr qilingan. Ushbu tarjimaning tarkibiy qismlari quyidagicha. Yashtlar, 2 jild (Bombey, 1928-31), Xurda Avesta (Bombey, 1931), Yasna, 1-jild (Bombey, 1933), 2-jild (Tehron, 1958), Vispered (Tehron, 1964) kabi jildlardan iborat.

2. "Goh"lar (گهگانه) – "Goh"lar (Zardushtga oid eng qadimiy madhiyalari) haqida batafsil tadqiqot olib borgan va ularni tarjima qilgan. "Goh"lar (1-nashr, Bombey, 1926) (2-nashr, Tehron, 1952) va "Gohlar haqidagi eslatmalar" (Tehron, 1957). Ushbu tarjimalardan tashqari Zardushtiylik falsafasi bo'yicha ham ilmiy izlanishlar olib borgan va "Ahura Mazda va Ahriman" (اهورامزدا و اهریمن) (1938) asarini yozgan. Ushbu asar– Zardushtiylik dualizmi va uning falsafiy jihatlariga bag'ishlangan. Keyingi tarjimaga to'xtaladigan bo'lsak, Jalil Do'sxoh qalamiga mansub bo'lib, 2 jildidan iborat. 1-kitob "Avesta: Ilohiy kitob – Zardushtiylik dini" Ushbu nashr Avestoning muhim qismlarini, Zardushtiylik dini asoslarini va uning falsafiy jihatlarini o'z ichiga oladi. [5] 2-kitob "Avesta: Eronliklarning eng qadimgi she'riyati"[6] U Avestoning asosiy matnlarini nafaqat fors tiliga tarjima qilgan, balki ularga keng qamrovli sharhlar va tahlillar ham qo'shgan. Purdovudning tarjimasini klassik yondashuv va madaniy va mifologik sharhlarga boyligi bilan ajralib turadi. J. Do'sxoh esa ilmiy tahlil qilgan va zamonaviy tadqiqotlar asosida tarjima qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada tadqiqot metodi sifatida "Yozma manbalarning ilmiy-texnologik xaritasi" metodidan foydalangan holda "Avesta"ning bir qator tillardagi tarjimalari tahlil qilindi. Bundan tashqari tarixiy xolislik, xronologik ketma-ketlik va qiyosiy taqqoslash usullaridan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar. "Avesta" nafaqat jahon tillari balkim o'zbek tiliga ham tarjima qilingan bo'lib, Asqar Mahkam ilk bor 2001-yilda "Avesta" ning nisbatan to'liq tarjimasini yaratdi.[7] Asqar Mahkam fors tilidan tarjima qilganligi bois tarjimada fors-tojik so'zlarning salmog'i ko'p. Shuning uchun hattoki atamalarda ham forsiy dialektika ustunlik qiladi. Atoqli otlarni tarjimasida esa ko'proq zamonaviy nomlardan foydalangan. Ko'plab tadqiqotchilar Mirsodiq Is'hoqov tarjimasini boshqa tarjimalarga nisbatan tushunish oson deb hisoblaydilar. Bunga sabab sifatida uning sof turkiy va o'zbekcha so'zlardan keng foydalanishini ko'rsatadilar. Mirsodiq Is'hoqov "Avesta"ni tarjima qilishda rus tarjimonlari ishlaridan keng foydalangan holda ilk bora "Yasht" [8] qismini, So'ngra "Videvdāt" [9] qismini tarjima qilgan. So'nggi yillarda "Goh" qismini ham tarjima qildi va uni Avesta: Zardusht "Goh"lari (ma'no o'girmalari va germeneytik talqinlari) deb atadi. [10] Gohlar "Avesta"ning eng qadimgi qismlaridan biri bo'lib Zardushtning muqaddas madhiyalari yig'indisidir. Tarjimon "Goh"larni aynan o'zbek tarjima qilish qiyinligi bois uni ma'no o'girmalari deb atagan. Quyida tarjimalarning tuzilish jihatdan tahlili berilgan.

"Avesta"ning to'liq saqlangan qismi "Videvdāt" bo'lib, 22 bobdan iborat bo'lib, har bir bobi fragard deb ataladi. Asqar Mahkam tarjimasini 15 fragarddan iborat bo'lib, X, XI, XIV, XIX, XX, XXI, XXII fragardlar tarjimasini butunlay yo'q. Manbaning uchdan bir qismi tarjimasini yo'qligi sababli manbada yoritilgan tarixiy ma'lumotlar izchilligiga putur yetkazadi. M. Is'hoqov tarjimasida esa 18ta fragard keltirilgan bo'lib, X, XI, XIV, XX fragardlar yo'q. XXII fragard bor lekin mazmun boshqacha. Tarjimalardagi kamchiliklar bir manba doirasida bo'lganligi bois manbaning ishonchlilik darajasini pasaytiradi. E. Rtveldze fikriga ko'ra, o'zbekcha nashrlar ommabop va badiiy xarakterdagi nashrlar hisoblanishi, jiddiy ilmiy tadqiqotlar zaruridir. [11]

Xulosa. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, "Avesta"ning o'zbekcha tarjimalari ilmiy mukammal emas. Ushbu sohada yanada chuqur tadqiqotlar olib borish lozim. Avesta tili "o'lik" tilga aylanganligi bois, boshqa tillardagi tarjimalar bilan qiyosiy tahlil qilish va o'zbek tilidagi tarjimalarning ishonchlilik darajasini oshirish lozim. Kelajakda "Avesta" ning to'liq va akademik izohlangan o'zbekcha tarjimasini yaratish zarurati mavjud.

ADABIYOTLAR

- Williams A.V., Jackson. Avesta // ERE, vol. II, p. 270
- Jeyms Darmesteter, Vendidad (Videvdāt) or Laws against the Demons Avesta /// The Sacred Books of Zoroastrianism. Book 3. 1898. P.36.
- Hoffmann K., Prolegomena to the Sources on the History of Pre-Islamic Central Asia, Budapest, 1979, pp. 89-93.
- Chr. Bartholomae, Die Gatha's des Avesta. Zarathushtra's Verspredigten, Strasburg, 1905.
- Avesta: The Divine Book of Zoroastrianism Doostkhah, J. & Pourdavoud, E., 2008, Morvarid
- Avesta: The Oldest Verses of the Iranians. Doostkhah, J., 1998, Morvarid.
- Asqar Mahkam. Avesto. Toshkent. Sharq. 2001.
- Mirsodiq Is'hoqov. Avesto: Yasht kitobi. Toshkent. 2001
- Is'hoqov M. Avesta. Videvdāt kitobi. Toshkent. 2007. 96-bet.
- Is'hoqov M. Avesta: Zardusht "Goh"larining ma'no o'girmalari ma germeneytik talqini. Toshkent. 2022. 320-bet.
- Ртвеладзе Э. В., Саидова А. Х., Абдуллаева К. В. Авеста. Закон против дэвов (Видевдат) / Адаптированный перевод, исследование и комментарии— СПб. 2008